

Kutubxona bilim olish maskani

Institut rektorining 2020-yil 17-noyabrdagi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 1-kurs talabalarining 2020-yilning 21-noyabr shanba kunida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi yuzasidan" tashriflar grafigiga asosan Gidromelioratsiya fakulteti, "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lim yo'nalishi 101-guruh talabarlari va guruh murabbiyi prof.Matyakubov B.Sh. rahbarligida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga tashrif qilishdi. Talabalarga kutubxonadan 3 yil davomida foydalanish bo'yicha a'zolik guvohnomalari (ID karta raqami AAA 201100655) taqdim qilishdi.



Talabalarga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasi bilan to'liqroq tanishish maqsadida ekskursiya o'tkazildi. Ekskursiyani talabalarga ma'lumotlar bo'limi xodimi hamda kutubxona direktori Umida Teshaboeva boshchiligida kutubxonaning "Kitobxonlarni ro'yxatga olish", "Tafakkur" katta o'quv zali, "Kashfiyot" ilmiy o'quv zali, "Istiqlol" yoshlar va talabalar o'quv zali, "Nodir" qo'lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar o'quv zali, "Jahon" xorijiy o'quv zali, ilmiy texnikaviy adabiyotlar o'quv zali, "O'zbekiston" milliy adabiyotlar va davlat tarixi zali, ma'lumot-axborot o'quv zali, katalog va kartotekalar, vertual ma'lumotlar xizmati hamda maxsus o'quv zallari: "Adolat" huquqiy axborot o'quv zali, "Ijod" nota-musiqqa nashrlar zali, "Ilm" dissertatsiyalar o'quv zali, "Media markaz" media va internet markazi, elektron kutubxona va imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar o'quv zali bilan yaqindan tanishtirishdi. Tashrif jarayonida talabalar kutubxona xodimlariga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojat qilishdi hamda berilgan savollarga aniq javoblar olishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati